

**TA'LIM SOHASIDAGI DAVLAT SIYOSATINING TAMOYILLARI.AMALGA  
OSHIRLAYOTGAN ISLOHATLAR**

**Raximova Roxat Boysoatovna**

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Pedagogika va  
Psixologiya kafedrasida o'qituvchisi*

**Sodiqov Og'abek Zokir o'g'li**

*Tibbiy biologiya fakulteti 2 kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ta'lim sohasidagi islohatlar islohatdagi natijalar, talim tizimida diniy bilimning ahamiyati, ta'lim tizimida korrupsiyani yo'qotish kabi jarayonlarga taklif va yangi islohatlar olib borish, o'qituvchilarni qadrlash to'grisida so'z boradi.*

**Аннотация:** *В данной статье говорится о реформах в сфере образования, итогах реформ, важности религиозных знаний в системе образования, предложениях по таким процессам, как ликвидация коррупции в системе образования, внедрение новых реформ, признательность учителей.*

**Annotation:** *This article talks about reforms in the field of education, the results of reforms, the importance of religious knowledge in the education system, proposals for such processes as the elimination of corruption in the education system, the introduction of new reforms, the appreciation of teachers.*

**Kalit so'zlar:** *ta'lim, islohot, kadr, diniy ta'lim, dunyoviy ta'lim, konsititutsiya, qonun;*

Global o'zgarishlar davrida ta'lim-tarbiyaga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Chunki hayot o'zgarish sur'atlari tezlashadi. Bu bir tomondan, turli xalqlar hayot sohalarida imkoniyat doirasida umumiy jihatlarni, qulayliklarni yaratib bersa, ikkinchi tomondan axborot makoni kengayadi. Turli maqsad va manfaatlarga yo'naltirilgan har xil g'oya, qarashlar, uni targ'ibot qilish texnologiyalari ijtimoiy ong va tafakkuriga ta'sir korsatish maqsadida jozibadorligini oshirgan holda samaradorlikka erishish uchun harakat qiladi. Ta'lim-tarbiyaning sovetcha modeli o'rnida yangi, ya'ni hozirgi zamonda ta'lim-tarbiya sohasida dunyoda erishilgan yutuqlarga, axborot kommunikatsiya tizimi, pedagogik texnologiyalarni joriy etgan xolda ta'limni amalga oshirishga, ta'lim sohasiga yangi innovatsiyalarni joriy etishga davlat siyosati darajasida e'tibor berilmoqda. Uning yutuqlarini esa dunyo e'tirof etmoqda. Masalan, ta'lim sohasida innovatsiyalarni joriy etishga boyicha Ozbekiston Respublikasini ikkinchi o'rinni olganligi ham bunga dalildir.

Mustaqillik yillarida Ta'lim tog'risidagi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi. Kadrlar tayyorlash milliy modeli ishlab chiqilib, yangicha dunyoqarash, g'oya va mafkuralar xilma-xilligiga asoslangani shaxsning ta'lim darajasi va salohiyatini oshirishga, mustaqil fikrlaydigan, ijodiy yondoshuv madaniyatiga ega bo'lgan, yangi avlod kadrlarini tayyorlash ta'lim-tarbiya sohasida muhim o'rin tutadi. Bu borada e'tibor berilishi bo'lgan

vazifalar sifatida quyidagilarni aytib o'tish mumkin. Birinchidan, mamlakatimizda demokratik jamiyat ko'rish vazifalarini amalga oshirishda ta'lim-tarbiyani tubdan isloh etish va uni modernizatsiyalashtirish muhim ro'l o'ynaydi. Ikkinchidan, globallashuv davrida o'qituvchining pedagogik jarayondagi asosiy vazifalari o'zgaradi. Uni boshqaruvchanlik faoliyatiga yangicha talablar qo'yiladi. Boshqarish - bu yo'naltirish, vazifa quyish, o'rganish, yordam berish va qo'llab-quvvatlashni hamda maslahat berish, rahbarlik qilish, kuzatish, talab qilish, ko'rsatma berishlari o'z ichiga oladi. Ta'lim-tarbiyada donishmand va mutafakkirlarning, xalqimizning milliy ma'naviy qadriyatlariga tayanish muhim ahamiyatga ega. Uchinchidan, ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'zgarishlar tinglovchilar yoshlar oldiga ham muhim vazifa qo'yadi. Ular izlash, kerakli bilimlarni mustaqil qidirib topish, axborot to'plash va ularni ishlata bilishlari bilan bog'liq.

Respublikamizda ta'lim, o'zbek, rus, qozoq, qirg'iz va tojik tillarida olib borilayotgan umumiy talim muassasalari mavjud bo'lib, bunday yo'l bilan barcha millatlarning tenglik asosida bilim olishiga sharoit yaratilgan. Bundan tashqari mamlakatning barcha hududlarida «yakshanbalik maktablari» tashkil qilingan bo'lib, xar bir millat vakillari dam olish kuni ixtiyoriy ravishda o'z ona tilida talim olish imkoniyatiga egalar. Ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv O'zbekiston Respublikasining «Talim to'grisida»gi qonunining 7-moddasida o'z ifodasini topgan. Davlat talim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar hamda oliy talim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilab beradi. Davlat talim standartlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha talim muassasalari uchun majburiydir. Buning ma'nosi shuki, xar bir talim turi uchun alohida davlat talim standartlari ishlab chiqiladi, ularda ko'zda tutilgan talablarga amal qilish esa mazkur bosqichdagi talim muassasalaridan birday talab etiladi. Ammo davlat ta'lim standarti asosida talim muassasalari o'zlarining o'quv dasturlari variantini ishlab chiqib, undan foydalanishlari mumkin. Bu talim olish maqsadi yagona bo'lgani holda, unga erishish yo'llari turlicha ekanligini ko'rsatadi.

So'ngi yillarda Respublikamizda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi islohatlar ijobiy va salbiy tomonlari ham bor hozirgi kunda OTM larga kirish bo'yicha islohatlar olib borildi. Abituriyentlar uchun qabul soninig 2 barobarda oshirilganligi, va bir vaqtning o'zida 5 ta OTM ga hujjat topshirish imtiyozlari mavjud bu albatta yaxshi, ilmlilar soni ortadi davlatda bilmlilar soning ko'pligi davlatimizni rivojlanishiga hissa qo'shadi. Lekin biz muhumi songamas sifat e'tibor berish kerakligini unutmasligimiz kerak. Ba'zi abiturentlar uchun imtiyozli qabul kvotalarining yaratilishi masalan: Imkonyati cheklangan abiturentlar, harbiy xizmatni o'tagan abiturentlar va harbiy xizmat qiladigan fuqoroning farzandlari uchun imtiyozlarning borligi. Bu albatta yaxshi, chunki Alloh nuqsonga qo'shib qobilyat ham beradi. Imkonyati cheklangan bo'lishiga qaramasdan Alloh qobilyat berganlari tufayli mashhurlikka erishganlar ko'p. bularga misol qilib yangi zelandiyalik Myurrey Xalbeg bolalikda regbi o'ynagan, ammo og'ir jarohat olgani uchun chap qo'li ishlamay qolgan. Shundan keyin Xalberg yugurish bilan shug'ullanishni boshlagan va 1960 yilda Olimpiada medalini qo'lga kiritgan Bunaqa misolardan juda ko'plab keltirishimiz mumkin. Bu

narsalarning salbiy tomoni esa shundan iboratki sog'lom lekin bilimi, o'qishga ishtiyoqi yo'q, va har narsa oson yo'l qidiradiganlar topiladi. Bunaqalar imkoniyati cheklanganli to'g'risida hujjat olishi, harbiy xizmatni o'tagan abituriyentning kirish ballidan juda past to'plash orqali davlant granti asosida o'qishga qabul qilinishi. Bu narsalar esa millatimizning rivojlanishini orqaga tortadi. Bularning oldini olish uchun imkoniyati cheklanganligi to'g'risidagi hujjatni olishdagi korrupsiyani yo'qotish va qattiq nazoratga olish, harbiy xizmatni o'taga abituriyentlar esa faqat harbiy xizmat yo'nalishida topshirganda ularga imtiyoz berilishini yo'lga qo'yishimiz kerak.

Ta'lim tizimimizga maktabdan boshlab nafaqat dunyoviy bilim balki diniy bilim berishimiz lozim. Albatta O'zbekistonimizda ko'p millatli va har xil dinga e'tiqod qiluvchilar bor. Ularning hammasiga o'z dinidan ta'lim bermog'imiz lozim. Chunki hech qaysi din yomonlikka boshlamaydi, har bir dinda halollikka undaydi. Agar tassavur qilib ko'ring davlatda hamma halol yashasa qanaqa bo'lardi? Davlatimiz eng rivojlangan davlatlardan biri va korrupsiyadan holi davlat hisoblanardi. Islom dinidan o'zimiz to'g'ri ta'lim berib borsak, yoshlarimizni, farzandalarimizni har xil yomon yo'llarga, terroristik yo'llarga kirib qolishini oldini olgan ham bo'lamiz. Dinimiz ta'lim bersak yoshlarimiz halollikka, ilm olishga intiladi, bo'sh vaqtini telefon bilan emas balki ilm olishga qaratadi.

Hozirgi kunda global muammoga aylangan ijtimoiy tarmoq, telefon ishlatish kabi holatlar ham albatta yoshlarimiz ta'lim tarbiyasiga tasir qilmasdan qolmaydi. Shu bois o'quvchilar telefon ishlatishini cheklash, agarda telefon olib bergan ota-onani jarimaga tortish yoki ma'lum bir sabablardagina telefon ishlatishga ruxsat berish va telefon ishlatish yoshini cheklash, kabi choralarni ko'rib chiqish lozim. Agar telefonni balog'at yoshiga yetgandan keyin ruxsat bersak bolalar bo'sh vaqtini kitob o'qish sport bilan shug'ulanish kabi foydali mashg'ulotlarga borish bilan vaqt o'tkazadi.

Farzandlarimiz ko'ziga o'qituvchilarimizni shunaqangi ko'rsatishimiz kerakki ularga hurmat qilishi yaxshi ko'rmog'i darkor. Agar o'quvchi ustozini hurmat qilmasa yoki yomon ko'rsa u bilim ololmaydi. Buning uchun o'qtuvchilarimizning oylik maoshini qolgan kasb egaloriga nisbatan eng yo'qori oylik maoshi qilishimiz kerak. Albatta bu bilan barobarda pedagogika OTMlariga kirish ballari yuqori qilishimiz kerak. Sababi agar bir o'quvchi boyning bolasi bo'lsa o'qituvchisi kambag'al bo'lsa, o'qituvchining holatini ko'rib hurmat qilishi mumkinmi? yo'q. Hozirgi kunda o'quvchi o'qituvchini mensimasligi va o'qituvchiga nisbatan past nazarda qarash holatlar ko'p va achinarli. Buni oldini olish uchun o'qituvchilarimizning oylik maoshini oshirishimiz, ularga bir qancha imtiyozlar, haq huquqlar berishimiz darkor. O'qtuvchi joiz bo'lsa o'quvchini kaltaklashga ham ruxsat berishimiz kerak. "Ustoz otangdek ulug'" degan maqol ham bor.

Xulosa qilib aytganda ta'lim tizimimizdan faxlanadigan tomonlarimiz ham ko'p. masalan yana biri konstitutsiyamizning 41-moddasi hamma davlatda ham bepul ta'lim berish mavjud emas. Lekin kamchiliklarimizni tuzatish uchun yangi islohatlar ham qilishimiz kerak. Ta'lim tizimimizga diniy ta'limni qo'shishimiz. Ijtimoiy tarmoqlarni telefonlarni cheklashimiz, OTMga kirish imtiyozlar sonini kamaytirishimiz va eng muhimi xalq orasida

o'qtuvchilarimiz obro'sini oshirsak ta'lim tizimimizning obro'sini dunyo davlatlari orasida oshirgan bo'lamiz.

"Biror davlatni yo'q qilish uchun atom bombasi shart emas. Ta'lim sifatini pasaytirib, imtihonlarda ko'chirishga (shpargalkadan foydalanishga) imkon berish yetarli.

Ana shunda:

Bemorlar - shifokorlar qo'li bilan o'ladi,

Binolar - muhandislar sababli qulaydi,

Pul - iqtisodchilar vositachiligida o'mariladi,

Insoniylik - din vakillari orqali unutiladi,

Adolat - huquqshunoslar oyoqlarida toptaladi".

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ikromov A.B., Maxmudov S.Y., Anorqulova G.M. Germaniya: Ta'lim, ilmfan (metodik qo'llanma. Kasb mahorati jurnali -2004-yil. 2 son.

2. G.Anorqulkova, A. Karimov.Xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xos yo'nalishi uslub va tahlili. Xalq ta'limi ilmiy metodik jurnali. 2017-yil. 3-son.

3.Boysoatovna, R. R. (2022). KASB TANLASH MOTIVATSIYASI NAMOYON BO'LISHIDA PSIXOLOGIK OMILLAR. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 1(11), 65-69

4. Boysoatovna, R. R., & Muxayyo, A. (2023). TIBBIYOT XODIMLARI O'RTASIDAGI IJOBIY MUHITNI YARATISHGA QARATILGAN PSIXOLOGIK TAVSIYALAR. Scientific Impulse, 1(6), 424-429.

5.Boysoatovna, R. R. (2023). ABU ALI IBN SINO ASARLARIDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YONDOSHUVNING O'ZIGA HOS JIHATLARI. Scientific Impulse, 1(6), 419-423

6. Boysoatovna, R. R. (2023). TALIM DARAJASI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARDAN FOYDALANISH. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 490-496.

7. Boysoatovna, R. R. (2022). O'RTA ASR SHARQ OLAMI YETUK MUTAFFAKKIRI ABU NASR FAROBIY ASARLARIDAGI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK QARASHLAR. Scientific Impulse, 1(4), 737-739.

8.Rohat, R. (2021, February). THEORETICAL OVERVIEW OF THE PERSONALITY OF THE LEADER. In Archive of Conferences (pp. 42-44).

9.Salokhiddinova Gazalkhon Bekmirzayevna, & Boymurodova Feruza Ziyod Kizi (2019). The prestige of culture in translation of Phraseological units. Достижения науки и образования, (12 (53)), 30-31.